8-son(1203), 2024 yil 30-oktabr

EL SOG`LIGI - YURT BOYLIGI

# SHIFOKOR SO`ZI

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI NASHRI

GAZETA 1938 YILDAN “MEDITSINA FANI UCHUN” NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

## O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA



Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, siz, azizlarni, yurtimizdagi ta’lim-tarbiya sohasi xodimlarini O‘qituvchi va murabbiylar kuni – umumxalq bayrami bilan chin qalbimdan muborakbod etib, barchangizga eng ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

Xalqimiz o‘zining azmu shijoati, bunyodkorlik salohiyati bilan Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etayotgan bugungi kunda ushbu ulug‘ ayyomning mohiyati, muallim va ustozlarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati ayniqsa ortib bormoqda.

El-yurtimiz azaldan e’zozlab keladigan o‘qituvchi va murabbiylarning maqomini, qadr-qimmatini yanada yuksaltirish – biz amalga oshirayotgan davlat siyosatining eng muhim, hal qiluvchi yo‘nalishiga aylangani ham shundan dalolat beradi.

Zero, donishmandlar aytganlaridek, mamlakat avvalo yerdan rizq-nasiba undiradigan dehqonlar, xalqni yovdan, turli yovuzliklardan himoya qiladigan askarlar, yosh avlodga ta’lim va tarbiya beradigan fidoyi muallimlarning sa’y-harakati bilan obod va farovon bo‘ladi.

Hurmatli vatandoshlar!

Keyingi yillarda milliy taraqqiyot strategiyamiz asosida yurtimizda ta’lim va tarbiya tizimida ham tom ma’noda tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Qisqa fursatda sohaga oid ko‘plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi huquqiy baza mustahkamlandi. Yangilangan Konstitutsiyamizda o‘qituvchining maqomi alohida belgilab qo‘yildi. Respublikamizda har yili yangi-yangi ta’lim maskanlari barpo etilib, ularning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarining zamon talablariga mos yangi avlodi yaratilmoqda.

Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimi dunyodagi ilg‘or tajribalar asosida mutlaqo yangicha rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ydi. Yurtimizdagi bolalar bog‘chalari soni 8 barobar oshib, salkam 38 mingtaga, jumladan, nodavlat ta’lim muassasalari 250 tadan 29 mingtaga, qamrov esa 27 foizdan 76,4 foizga yetgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi. Bu haqda so‘z yuritganda, oxirgi yetti yilda 5 mingdan ziyod maktabda, shu yilning o‘zida esa 608 ta maktabda qurilish va ta’mirlash ishlari bajarilganini ta’kidlash lozim.

Ilk bor 530 ta maktabda inklyuziv ta’lim joriy etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 288 ming nafardan ortiq boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bepul ovqatlanishi yo‘lga qo‘yildi.

Xususiy sektor rivoji uchun yaratib berilayotgan qulay imkoniyatlar natijasida nodavlat maktablar ulushi 5 foizga yetgani diqqatga sazovordir.

Biz inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ulkan ishlarimiz doirasida o‘qituvchi va murabbiylar mehnatini munosib baholash va rag‘batlantirishga alohida ahamiyat bermoqdamiz.

Bugungi kunda o‘qituvchilarning ish haqi 2016-yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 marta, professor-o‘qituvchilarning oylik maoshi esa 4,5 karra o‘sgani, oktabr oyidan pedagog xodimlarning ish haqi yana 15 foizga oshirilishi shu boradagi sa’y-harakatlarimiz natijasidir.

Ta’lim sifatini yuksaltirish maqsadida pedagoglarning malakasini oshirish bo‘yicha yagona va vertikal tizim yaratildi. Joriy yilda hozirga qadar 142 nafar o‘qituvchi ilg‘or xorijiy davlatlarda malaka oshirib qaytdi. Maktab direktori lavozimiga tayinlash tizimi takomillashtirilib, ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi o‘rnatildi.

Ta’lim-tarbiya sohasiga berilayotgan ulkan e’tibor tufayli yoshlarimiz bilim, fan va texnika, madaniyat va san’at, sport sohalarida yuksak marralarni qo‘lga kiritayotgani barchamizni mamnun etmoqda.

O‘quvchilarimiz 2010-2016-yillarda xalqaro fan olimpiadalarida 73 ta medalni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, so‘nggi yetti yilda 349 ta, 2024-yilning o‘zida esa 122 ta medalga sazovor bo‘lgani ham birinchi navbatda sizlarning mashaqqatli mehnatingiz samarasidir.

Bu borada xalqaro fan olimpiadalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilarning ustozlarini rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yilgani va shu maqsadda Davlat budjetidan 6 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilgani muhim rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston tarixida birinchi marta buyuk allomalarimizga bag‘ishlangan xalqaro fan olimpiadalarini o‘tkazishni boshladik. Bu esa farzandlarimiz, butun xalqimiz qalbida g‘urur va iftixor tuyg‘usi bilan birga, dunyoda O‘zbekistonning ma’rifiy nufuzini ham yuksaltirmoqda.

Maktabda ikkinchi xorijiy til va kasb-hunarlarni o‘rgatish borasida ham muhim qadamlar tashlandi. Joriy o‘quv yilida 354 ta maktabda 16 mingdan ziyod o‘quvchiga ikkita xorijiy tilni o‘qitish, 289 ta maktabda 40 mingdan ortiq o‘quvchiga kasb-hunar o‘rgatish

yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Qisqa muddatda yurtimizda 135 ta yangi oliygoh tashkil etilib, ularning umumiy soni 211 taga yetkazilgani, tizimda qamrov darajasi 4 barobardan ziyod oshib, 9 foizdan 38 foizga yetgani misolida buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Qadrli do‘stlar!

Ko‘hna tarix, bugungi hayot tajribasi barcha muammolarning yechimi, savollarning javobi faqat va faqat ta’limda, kamolot va baxt eshiklarining kaliti ta’lim va tarbiyada ekanidan dalolat beradi.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, o‘z oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarga yetishda – jonajon O‘zbekistonimizni erkin va farovon, har tomonlama obod mamlakatga aylantirishda soha rivojini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Sizlar bilan bo‘lib o‘tgan sermazmun va samimiy muloqotimizda bu haqda yana bir bor fikr almashib, kelajak rejalarimizni aniq belgilab oldik.

Ishonchim komil, siz, muhtaram pedagoglar, professor-o‘qituvchilarimiz ta’lim sohasidagi islohotlarimizda yanada faol ishtirok etib, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifiy jamiyat” degan olijanob g‘oyamizni amalga oshirishga munosib hissa qo‘shasiz.

Hech shubhasiz, biz ta’lim va tarbiya tizimini yanada ravnaq toptirish, soha xodimlari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish masalasiga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat beramiz va o‘qituvchilikni jamiyatimizda eng obro‘li kasblar qatoriga olib chiqamiz.

Muhtaram ustozlar!

Mana shu shukuhli ayyomda siz, azizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, ezgu va sharafli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Hamisha sog‘-omon bo‘ling, qadrli va mehribon ustozlar!

***Shavkat Mirziyoyev,***
***O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti***

***O‘qituvchilik, mashaqqatli va sharafli kasbdir. Jamiyat va davlat rivojida ustoz va murabbiylarimizning o‘rni beqiyosdir. Shu boisdan ularni qancha e’zozlasak, qancha hurmat ko‘rsatsak oz.***

# O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNIGA BAG‘ISHLAB BAYRAM TADBIRI TASHKIL ETILDI

Universitetda 1-oktabr – “Ustoz va murabbiylar kuni” munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi. Bayramda so‘zga chiqqan rektor Jasur Rizayev barcha ustoz va murabbiylarni bayram bilan tabriklab, ularga sog‘lik, salomatlik va ilm yo‘lida muvaffaqiyatlar tiladi.

Bayram doirasida universitetning bir guruh o‘qituvchilari taqdirlanib, ularga “Oliy ta’lim a’lochisi” va “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash a’lochisi” ko‘krak nishonlari hamda tashakkurnomalar, esdalik sovg‘alari topshirildi.

Tadbir bayramona dasturxon atrofida xushovoz xonandalarning chiqishlari va milliy raqslar namoyishi bilan ko‘tarinki kayfiyatda davom etdi.





## ONA TILIMIZGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGAN KUN KENG NISHONLANDI

***Ona tilimiz milliy davlatchiligimiz va qadriyatlarimizni o‘zida aks ettirganligi bilan katta ahamiyatga ega. 1989-yil 21-oktyabrdan beri har yili o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kunni bayram sifatida nishonlab kelamiz.***

Bayram munosabati bilan Samarqand shahridagi “Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog‘i”da tilimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan shoir, mutafakkir, so‘z mulkining sultoni, Hazrat Navoiy haykali poyiga gul qo‘yish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Samarqand shahrining bir qator mas’ul shaxslari, soha mutaxassislari hamda oliy ta’lim muassasalari vakillari va talabalar ishtirok etdi. Shuningdek, Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi ham bayram tadbirida ishtirok etdi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar ona tilimiz ulug‘ligi, uning o‘tmishi va buguni, tilimizning jamiyat va davlat rivojidagi ahamiyati xususida gapirib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 35 yilligi bilan yig‘ilganlarni tabrikladilar. Tadbir davomida tilimiz madh etilgan she’r va kuy-qo‘shiqlar tinglandi hamda sahna ko‘rinishi namoyish etildi.




## SAMARQAND SHAHRI KUNI KO’TARINKI RUHDA NISHONLANDI

***18-oktabr – qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahri kuni sifatida nishonlanadi.***






Sana munosabati bilan erta tongdan Samarqand shahri bo‘ylab bayram shodiyonalari boshlandi. Jumladan, Samarqand davlat tibbiyot universiteti ham katta bayram tadbirida ishtirok etdi.

Bayramda universitet professor-o‘qituvchilari va talabalari ishtirok etdilar. Shuningdek, ko‘tarinki bayram dasturiga SamDTU rektori Jasur Rizayev ham tashrif buyurdi hamda barchani ona Samarqandimiz bayrami bilan tabrikladi. Yuqori kayfiyatda o‘tgan bayramda SamDTU jamoasi tomonidan ko‘rgazmalar, turli qiziqarli san’at namunalari hamda xalqaro ta’lim fakultetining xorijlik talabalari ishtirokidagi milliy raqs chiqishlari namoyish etildi.

# AVSTRIYANING YETAKCHI W&H KOMPANIYASI BILAN HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI



***11-oktabr kuni universitetga Avstriyaning zamonaviy stomatologik asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchi W&H kompaniyasi vakillari tashrif buyurdi.***

Kompaniyaning Yevropa, MDH, Rossiya, Yaqin Sharq va Afrika bo'yicha savdo direktori Angelo Bonzi boshchiligidagi mehmonlarni rektor Jasur Rizayev kutib oldi hamda uchrashuv tashkil etilib, o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, tashrif doirasida Avstriya delegatsiyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti va undagi yaratilgan sharoitlar, ta'lim tizimi bilan yaqindan tanishdilar. Universitet qoshidagi simulyatsion markaz hamda universitet tarixi muzeyiga ham tashrif amalga oshirilib, SamDTU haqidagi qiziqarli va qimmatli ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Ma'lumot uchun: Avstriyaning W&H kompaniyasi Stomatologik asbob-uskunalar, avtoklavlar, implantologiya va piezoxirurgiya apparatlari ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniyalardan biri bo'lib, 1890-yilda tashkil etilgan. Hozirda kompaniya dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida o'z filiallariga ega hisoblanadi.



# KOREYANING YETAKCHI KOMPANIYALARI BILAN HAMKORLIK MEMORANDUMI IMZOLANDI

***17-oktabr kuni universitetga "NK HEALTHCARE C.E.O" kompaniyasi direktori Juwon Kang va "SW Laboratory C.E.O" kompaniyasi direktori Seongdeok Yoo boshchiligadiga delegatsiya tashrif buyurdi.***

Koreyalik mehmonlarni rektor Jasur Rizayev kutib oldi. Uchrashuvda SamDTU qoshidagi immunologiya, allergologiya va inson genomikasi ilmiy-amaliy markazida zamonaviy, barcha sharoitlarga ega genetik laboratoriyani tashkil etish masalasi muhokama qilindi.

Uchrashuv so'ngida SamDTU, "NK HEALTHCARE C.E.O" va "SW Laboratory C.E.O" kompaniyalari o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

# GERMANIYANING HEYDELBERG UNIVERSITETI BILAN NEYROXIRURGIYA SOHASI BO'YICHA HAMKORLIK ALOQALARI MUSTAHKAMLANMOQDA

***So'ngi yillarda yurtimizda sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish va yetakchi xorijiy mamlakatlar yutuqlarini sohaga tadbiq qilish maqsadida davlatlararo fan va tibbiyot forumlari an'anaviy ravishda tashkil etilmoqda.***

2023-yil 25-may kuni Samarqand shahrida o'tkazilgan "O'zbekiston – Germaniya tibbiyot forumi" doirasida Universitetimiz va Germaniyaning bir qancha yetakchi tashkilotlari o'rtasida hamkorlik shartnomalari imzolangan edi. Jumladan, universitetimiz huzuridagi Neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi hamda Germaniyaning Heydelberg Universiteti Neyroxirurgiya klinikasi bilan ham hamkorlik o'rnatish maqsadida memorandumga imzo chekildi. Ushbu hamkorlik doirasida Heydelberg Universiteti Neyroxirurgiya klinikasi direktori, professor Andreas Unterbergga SamDTU faxriy professori maqomi berildi va o'tgan vaqt davomida professor tomonidan Neyroxirurgiya kafedrasida bir qator ma'ruzalar va mahorat darslari tashkil etildi.

Universitetimiz huzuridagi Neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi direktori PhD, dotsent M.Aliyev va assistent B.Abduvoyitov 17-18 oktabr kunlari Germaniya Federativ Respublikasining Heydelberg Universiteti (UKHD) Neyroxirurgiya klinikasida qisqa muddatli malaka oshirish kursida bo'lishdi.

Tashrif doirasida mutaxassislarimiz ushbu klinikada bajarilayotgan murakkab texnologiyali operatsiyalarda qatnashdilar va zamonaviy uskunalar bilan ishlash tajribasini o'zlashtirdilar. Bundan tashqari klinikalararo ilmiy kollaboratsiya, akademik mobillik va mutaxassislarning qisqa va uzoq muddatli malaka oshirish masalalari bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Universitäts Klinikum Heidelberg (UKHD) Neyroxirurgiya klinikasi neyroxirurglari markazimizda mahorat darsi operatsiyalarini amalga oshirish rejalashtirildi.



# SANKT-PETERBURGDA "IV YEVROOSIYO AYOLLAR FORUMI" BO'LIB O'TDI







***18-20 sentabr kunlari Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida "Xotin-qizlar ishonchni mustahkamlash va global hamkorlik uchun" mavzusidagi to'rtinchi Yevroosiyo ayollar forumi bo'lib o'tdi.***

Forumda 126 davlat parlamentlari raislari, hukumat rahbarlari va 20 dan ortiq xalqaro tashkilotlar vakillari, biznes, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi turli sohalarda faoliyat yurituvchi 1,5 mingdan ortiq vakillar ishtirok etdi. Jumladan, forumda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Narbayeva boshchiligidagi yurtimiz vakillari, xususan, Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi immunologiya, allergologiya inson genomikasi ilmiy tekshirish instituti direktori, professor Dilafruz Xolmurodova ham ishtirok etdi.

Forumda Dilafruz Quvvatovna "Ilmli ayol – millat kelajagi" mavzusida ma'ruza qilib, o'zbek milliyligiga ko'ra jamiyatda onalarga, ayollarga bo'lgan hurmatning balandligi, hozirda yurtimizda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, qizlarimizning ta'lim olishlari uchun berilayotgan imkoniyatlar haqida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, immunologiya, allergologiya va inson genomikasi ilmiy-amaliy markazida olib borilayotgan ilmiy, hamkorlik ishlari haqidagi ma'lumotlar bilan ham o'rtoqlashdi.

## “ABU ALI IBN SINO – TIBBIYOT JAVOHIRI” III XALQARO XALQ TABOBATI BO‘YICHA ILMIY-AMALIY ANJUMAN O‘TKAZILDI

***11-12 oktabr kunlari universitetda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Samarqand davlat tibbiyot Universiteti va Ibn Sino jamoat fondi bilan hamkorlikda Abu Ali Ibn Sino tavalludining 1044 yilligiga bag‘ishlangan III Xalq tabobati bo‘yicha xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.***

Jahon tibbiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk bobokalonimiz merosini o‘rganish va keng tatbiq qilishga qaratilgan anjumanda yurtimiz hamda Koreya, Hindiston, Eron, Turkiya, Avstriya, Rossiya kabi 12 ta mamlakatdan ellikdan ortiq mutaxassislar ishtirok etdi.

Anjumanning tantanali ochilish marosimida so‘zga chiqqan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari Elmira Basitxanova bobokalonimiz Abu Ali Ibn Sino faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tib, tashkil etilayotgan mazkur nufuzli konferensiyaning ahamiyati xususida so‘z yuritdi. Shuningdek, Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, professor Jasur Rizayev hamda Ibn Sino jamoat fondi boshqaruvi raisi Nozimxon Maxmudovlar ham o‘z so‘zida tib ilmining sultoni Abu Ali Ibn Sinoning ko‘p qirrali va bugungi kun uchun o‘ta hamiyatli bo‘lgan faoliyatiga yuksak baho berib, barcha anjuman ishtirokchilariga omad tiladilar.

Anjuman doirasida xorijlik mutaxassislar tomonidan mahorat darslari, amaliy ko‘nikmalar namoyish etildi. Shuningdek, “Abu Ali ibn Sino ta’limoti va hadislarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi o‘rni”, “Ibn Sinoning an’anaviy tibbiyot g‘oyasini O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimiga joriy etish”, “Xalq tabobatida dorivor o‘simliklarni standartlashtirishning dolzarb masalalari”, “Turkiya dorivor o‘simliklari haqida ma’lumot”, “An’anaviy tibbiyotning yaxlit asoslari” boshqa bir qator dolzarb masalalar yuzasidan ma’ruzalar qilinib, fikr va mulohazalar tinglandi.

Tashkil etilgan mazkur nufuzli anjuman ulug‘ bobokalonimiz Abu Ali ibn Sinoning jahon tabobati, san’ati va adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissasini e’tirof etish, uning boy ilmiy merosini o‘rganish va yosh avlodga o‘rgatish, ibn Sinoning tibbiyotda ilgari surgan g‘oyalarni mamlakatimiz va jahon tibbiyoti amaliyotiga joriy qilish, shuningdek, xalqaro do‘stona aloqalarni yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.



## “LABORATORIYA DIAGNOSTIKASIDA INNOVATSIYA, AVTOMATLASHTIRISH VA SIFAT” MAVZUSIDA SEMINAR

***4-oktabr kuni universitetda “Laboratoriya diagnostikasida innovatsiya, avtomatlashtirish va sifat” mavzusida seminar o‘tkazildi.***

Seminarda universitet Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Aziz Kubayev, INSEP kompaniyasi vakillari Artyom Aleksandrovich, Timur Mirusmanov hamda boshqa soha vakillari tomonidan laborator diagnoistika sohasidagi yutuq va kamchiliklar, innovatsion qarashlarga bag‘ishlangan ma’ruzalar qilinib, yuzaga kelgan savollarga atroflicha javob berildi.
















## “RAXIT VA ANEMIYA KASALLIGI PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH: O‘TMISHDAN KELAJAKKA” NOMLI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN O‘TKAZILDI

***30-sentabr kuni universitetda “Raxit va anemiya kasalligi profilaktikasi va davolash: o‘tmishdan kelajakka” nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi.***

Anjumanni rektor Jasur Rizayev kirish so‘zi bilan ochib berib, mazkur anjuman bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ko‘pchilik qismida dolzarb bo‘lib turgan bolalar kamqonligi va raxit kasalliklari profilaktikasi, oldini olish va davolashdagi qo‘lga kiritilgan yutuqlar, ilmiy yangiliklarni baham ko‘rish, shuningdek, tibbiyot va ta’lim integratsiyasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tdi.

Anjumanda so‘zga chiqqan Samarqand viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i Suxrob Zayniyev hamda Niderlandiya qirolligining O‘zbekistondagi faxriy konsuli Xyugo Minderxud tashkil etilgan konferensiyaning nafaqat viloyat, balki, butun Respublikamiz sog‘liqni saqlash tizimida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, bu keng qamrovli tadbir xalqaro aloqalarning ham yanada rivojlanishiga zamin yaratishini aytib o‘tdilar.

Anjumanda “Temir moddasi tanqisligi va anemiya kasalliklari bo‘lgan bolalarga psixologik yordam”, “O‘zbekiston va Niderlandiya uzoq yillik hamkorligi”, “Gipovitaminoz Dning oldini olishdagi yangicha usullar” va boshqa bir qator dolzarb mavzular yuzasidan ma’ruzalar qilinib, fikr almashildi.



## SAMDTU TRAVMATOLOG-ORTOPEDLARI “V MARKAZIY OSIYO ORTOPEDLARI SAMMITI”DA ISHTIROK ETDI

***Samarqand davlat tibbiyot universiteti Travmatologiya va ortopediya kafedrasi delegatsiyasi (PhD, dotsent v.b. Sh.Eranov, PhD, dotsent v.b. I.Jo‘rayev, M.Ashirov) 19-20 oktabr kunlari Xitoyning Urumchi shahrida o‘tkazilgan V Markaziy Osiyo ortopedlari sammitida ishtirok etdilar.***

Ushbu nufuzli sammit Markaziy Osiyoning beshta davlatidan ortopediya, reabilitatsiya va an’anaviy Xitoy tabobati sohalaridagi yetakchi ekspert va olimlarni birlashtirdi. Sammitda tegishli sohalardagi so‘nggi yutuqlar, muammolar va imkoniyatlar birgalikda muhokama qilinib, akademik almashinuvlar va turli fanlar bo‘yicha tibbiy texnologiyalarni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar belgilab olindi.

## “DENTAL RING – IPAK YO‘LI” NOMLI XALQARO ANJUMAN O‘TKAZILDI

***Universitetda “Dental ring – Ipak yo‘li” nomli xalqaro anjuman o‘tkazildi.***

Stomatologiyadagi ilmiy-amaliy yutuqlar hamda dolzarb muammolarga bag‘ishlangan anjumanda Respublikamiz hamda Rossiyaning bir qator soha vakillari ishtirok etdi.

Anjuman davomida “Og‘iz bo‘shlig‘i salomatlik ko‘zgusi sifatida”, “Briketdan keyin tish emalining postorodontik tiklanishi”, “Tishlarning oldingi guruhini tiklash: mumkin yoki mumkin emas”, “Tish milkidan oqilona foydalanish” va boshqa bir qator dolzarb mavzular yuzasidan ma’ruzalar qilindi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamda Rossiya davlat ijtimoiy universiteti hamkorligida tashkil etilgan mazkur anjumanda sohaga doir ko‘plab yangiliklar, ilmiy va amaliy yutuqlar o‘zaro almashinib, muammo va kamchiliklar yuzasidan fikrlar o‘rtaga tashlandi. Shuningdek, talabalar va boshqa ishtirokchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. “Dental ring – Ipak yo‘li” mavzusidagi xalqaro anjumanning tashkil etilishi nafaqat viloyatimiz, balki Respublika miqyosida stomatologiya sohasining rivojlanishi, xalqaro maydondagi o‘zaro bilim va tajriba almashishning jadallashishiga zamin yaratadi.



## “MEDIOFARM” KLINIKALAR TARMOG‘I BILAN HAMKORLIK MEMORANDUMI IMZOLANDI

***28-sentabr kuni universitetga “Mediofarm” klinikalar tarmog‘i asoschisi, Nozima Xodjayeva tashrif buyurdi.***

Tashrif doirasida rektor Jasur Rizayev bilan uchrashuv tashkil etilib, o‘zaro hamkorlik masalalariga qaratilgan memorandum imzolandi. Memorandumga ko‘ra kelgusida yordamchi reproduktiv texnologiyalar (YRT) va ekstarkorporal urug‘lantirish (EKU) sohasida ilmiy va amaliy hamkorlikni olib borishga kelishildi.



Shuningdek, endilikda SamDTU ko‘p tarmoqli klinikasi xirurgiya markazida “Mediofarm” bilan hamkorlikda ekstarkorporal urug‘lantirish (EKU) amaliyoti joriy etiladi.



Ushbu strategik hamkorlik shifokorlar va bemorlar uchun yangi ufqlarni ochib, bepushtlikni tashxislash va davolashning zamonaviy usullaridan foydalanish imkonini beradi.

Ma’lumot uchun: Mediofarm klinikasi IVF ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi bo‘lib, ayollar va erkaklarning reproduktiv salomatligini tiklash va erkaklar va ayollardagi bepushtlikni davolashga ixtisoslashtirilgan. Klinika zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan operatsiya va laboratoriya xonalariga ega. «Mediofarm IVF» klinikasida qo’llaniladigan barcha tadqiqot va davolash usullari samaradorligi va xavfsizligi isbotlangan.

## “DOKTOR M” REPRODUKTIV SALOMATLIK MARKAZI BILAN HAMKORLIK

17-oktabr kuni universitetga “Doktor M” reproduktiv salomatlik markazi vakillari tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida rektor Jasur Rizayev bilan uchrashuv tashkil etilib, o’zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Uchrashuv yakunida Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamda “Doktor M” reproduktiv salomatlik markazi o’rtasida hamkorlik memorandum imzolandi. Memorandumga ko’ra kelgusida yordamchi reproduktiv texnologiya, bepushtlikni davolashning zamonaviy usullarini yaratish va aholiga sifatli xizmatlar ko’rsatish bo’yicha belgilangan maqsadlarga erishish, yordamchi reproduktiv texnologiyalar sohasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borishga hamda birgalikda bir qancha istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga kelishildi.





## KOREYALIK YETAKCHI MUTAXASSISLAR TOMONIDAN BEPUL TIBBIY KO‘RIKLAR O‘TKAZILDI

8-11 oktabr kunlari universitetning ko‘p tarmoqli klinikasi xirurgiya markazida “174-WFK-Komsta O‘zbekistondagi sharq tabobati xayriya aksiyasi” doirasida Koreyalik malakali mutaxassislar tomonidan bepul tibbiy ko‘rik va maslahatlar tashkil etildi.

Mazkur ko‘riklar davomida ko‘plab bemorlar Koreyalik shifokorlar ko‘rigidan o‘tkazildi hamda ularga massaj, ignaterapiya kabi muolajalar qilinib, kerakli tavsiya va maslahatlar berildi.

# XITOYNING SHINJON TIBBIYOT UNIVERSITETI TALABALARI AKADEMIK MOBILLIK DOIRASIDA TIBBIYOT UNIVERSITETIDA BO'LDILAR




***Samarqand davlat tibbiyot universiteti dunyoning bir qator yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini amalga oshirib kelmoqda.***

Jumladan, Xitoyning Shinjon tibbiyot universiteti bilan ham o'zaro hamkorlik memorandum imzolangan bo'lib, hamkorlik doirasida ko'plab birgalikdagi loyihalar, ilmiy-amaliy anjumanlar hamda o'qituvchi va talabalarning akademik almashinuvi amalga oshirilib kelinmoqda.

24-28 oktabr kunlari akademik mobillik doirasida Shinjon tibbiyot universiteti talabalari Samarqand davlat tibbiyot universitetida bo'ldilar. Tashrifning dastlabki bosqichida rektor Jasur Rizayev bilan uchrashuv tashkil etilib, ikki oliygoh o'rtasidagi hamkorlik va do'stlik aloqalarining yanada rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlab o'tildi.

Mobillik doirasida xitoylik talabalar SamDTU va unda yaratilgan sharoitlar, ta'lim tizimi bilan tanishdilar. Shuningdek, universitet qoshidagi xirurgiya markazi, simulyatsion markaz, universitet klinikalari faoliyati bilan ham yaqindan tanishib, o'z bilim va ko'nikmalarini oshirdilar. Akademik almashinuv doirasida mahorat darslari, ma'ruzalar va amaliy ko'nikmalar namoyishi tashkil etildi. Shundan so'ng xitoylik talabalar universitetning 2-klinikasi - Bolalar jarrohligi markazi va uning faoliyati bilan tanishdilar. Yakunda barcha xitoylik talabalarga sertifikatlar topshirilib, bayramona konsert dasturi namoyish etildi.

# "MA'RIFAT ULASHIB" LOYIHASI DOIRASIDA TANIQLI ADIBLAR BILAN UCHRASHUV O'TKAZILDI

***Samarqand davlat tibbiyot universitetida "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida elimizning taniqli ijodkorlari Aziz Said, Dilshod Rajab va Orif To'xtashlar bilan uchrashuv o'tkazildi.***



Dastlab mehmonlar SamDTU va undagi yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishib, universitet tarixi muzeyiga tashrif buyurdilar hamda ta'lim muassasasining tarixi haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Tashrif davomida talabalar bilan uchrashuv tashkil etilib, ochiq davra suhbatida adiblar o'z hayot va ijod yo'llari haqida xotiralarini o'rtoqlashdilar. Ijod, ilm va ma'rifat borasida fikr almashildi.

Shuningdek, loyiha doirasida mehmonlar ishtirokida universitet talabalari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida adiblarimiz bilan universitet binosi atrofiga manzarali ko'chatlar o'tqazildi. «Ma'rifat ulashib» loyihasi Samarqand davlat tibbiyot universitetiga biriktirilgan maktablarda ko'tarinki kayfiyatda davom etdi. Maktab hovlisi atrofiga ham manzarali ko'chatlar ekildi.

Loyiha gulxan atrofidagi mushoiraga ulanib ketdi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalar turar joyida gulxan atrofida davra tashkil etilib, mehmonlar ishtirokida talabalar bilan suhbat uyushtirildi.

Taniqli adiblar Aziz Said, Dilshod Rajab va Orif To'xtashlar tomonidan o'qilgan betakror ijod namunalari hamda talabalar tomonidan tayyorlangan chiqishlar barcha yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Shuningdek, tadbir doirasida TTJda shaxmat, stol tennisi, armrestling va rassomchilik bo'yicha bellashuvlar o'tkazilib, g'olib va sovrindorlar taqdirlandi.

Adiblar bilan tashkil etilgan mazkur keng qamrovli uchrashuvlar yosh avlodni ilmli, ma'rifatli hamda madaniyati yuksak inson bo'lib voyaga yetishiga o'z hissasini qo'shadi desak, mubolag'a bo'lmaydi.




# SAMDTU VAKILLARI TIBBIYOT TA'LIMI VA TADQIQOTLARINI XALQAROLASHTIRISH BO'YICHA XALQARO FORUMDA ISHTIROK ETISHDI



***2024-yil 21-22 oktabr kunlari Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektori, dotsent N.Yarmuxamedova Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida bo'lib o'tgan "Shenchjen forumi: tibbiy ta'lim va tadqiqotlarni xalqarolashtirish" (Shenchjen, Xitoy) xalqaro forumida ishtirok etdi.***




Xalqaro forum Markaziy Osiyoning beshta davlatidan tibbiyot sohasidagi yetakchi ekspert va olimlarni birlashtirdi. Mazkur platformada tibbiy ta'lim sohasidagi yutuqlar, muammolar va imkoniyatlar muhokama qilindi.

Forum davomida ishtirokchilar Shenchjen universiteti bilan yaqindan tanishdilar va bir qator uchrashuvlar o'tkazdilar va hamkorlikni yanada rivojlantirish imkoniyatlari muhokama qildilar. Jumladan, 21-oktabr kuni professor Sinchji Syu bilan uchrashuv bo'lib o'tdi, unda ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarga chalingan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishda zamonaviy tashkiliy texnologiyalardan foydalanish uchun shart-sharoitlarni shakllantirish masalalari muhokama qilindi. Ishtirokchilar universitetdagi laboratoriya va zavod tashkilotlariga ham tashrif buyurishdi.

SamDTU vakili t.f.d. N.Yarmuhamedova "O'zbekiston Respublikasida oliy tibbiyot ta'limi tizimini o'zgartirish: Samarqand davlat tibbiyot universiteti tajribasi" mavzuida chiqish qildi va ma'ruza forum ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Xalqaro forumda ishtirok etish va yo'lga qo'yilgan hamkorlik, bizga yuqori malakali mutaxassislarning yangi avlodini tayyorlashda innovatsiyalarni joriy etish hamda oliy tibbiy ta'lim sohasida innovatsiyalar va eng so'nggi ishlanmalarni joriy etish imkonini beradi.

# UNIVERSITET TARIXI

## MUZEYIDAGI TILAKLAR KITOBIDAN


It is the greatest honor for us
to be here and communicate,
and share friendship.
Passion, the will to go further,
will surely open the gate
for the future.

Again, I would like express my
special thanks to all of you.

Sincerely, Hang-Seok Chang, M.D. Ph.D FACS,
from Korea

## "TIL – MILLAT FAXRI"



***1989-yilning 21-oktabr kuni Vatanimizda davlat tilining huquqiy asoslarini belgilash bo'yicha "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unga ko'ra O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi.***

"O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida" 2020-yil 10-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonunining (O'RQ-615-son) 1-moddasi bilan 21-oktabr kuni «O'zbek tili bayrami kuni» etib belgilangan.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 35 yil to'lishi munosabati bilan mazkur sanani "O'zbek tili bayrami" sifatida nishonlanishi butun respublika miqyosida qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Shu munosabat bilan, joriy yilning 21-oktabr kuni universitetda «O'zbek tili va adabiyoti, rus tili bilan" kafedrasi xodimlari va talabalar ishtirokida "Til – Millat faxri" mavzusida bayram tadbiri o'tkazildi. Tadbirda universitet professor-o'qituvchilari va talabalari ishtirok etdilar. Bayram tadbirida o'zbek tilining huquqiy maqomini belgilashda yengib o'tilgan qiyinchiliklardan tortib hozirgi kunda tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanish uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda davlat tilini yangi pog'onaga olib chiqish borasida qilinayotgan sa'y-harakatlar alohida e'tirof etildi. Tilimizni e'zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma'naviy burchimiz ekanligi e'tirof etildi.

## "OMMAVIY DIKTANT" AKSIYASI O'TKAZILDI

***Universitetda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi va "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinganligining 35 yilligiga bag'ishlangan "Ommaviy diktant" aksiyasi o'tkazildi.***

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining hamkorligida o'zbek tiliga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish maqsadida, 16-oktabr kuni universitetda "Ommaviy diktant" aksiyasi o'tkazildi.

Aksiyada barcha fakultet talabalari faol ishtirok etdi.



# SAMDTU

## QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

***1-son davolash ishi fakulteti***
3-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin.

***2-son davolash ishi fakulteti***
4-son ichki kasalliklar kafedrasi, dotsent lavozimiga – 1 ta o'rin;
4-son ichki kasalliklar kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin;
1-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin.

***Pediatriya ishi fakulteti***
2-son pediatriya kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga – 1 ta o'rin;
1-son pediatriya va neonatologiya kafedrasi, dotsent lavozimiga – 1 ta o'rin;
Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi, dotsent lavozimiga – 1 ta o'rin;
1-son pediatriya va neonatologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin.

***Tibbiy pedagogika, xalq tabobati va oliy hamshiralik ishi fakulteti***
Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi, dotsent lavozimiga - 1 ta o'rin;
Umumiy xirurgiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin;
Endokrinologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin;
Tillar kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin.

***Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti***
Patologik fiziologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin;
Gigiyena kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin
Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin.

***Farmatsiya fakulteti***
Farmakologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin;
Biologik kimyo kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin;
Klinik farmakologiya kafedrasi, stajyor-assistent lavozimiga – 1 ta o'rin;
Biologik kimyo kafedrasi, stajyor-assistent lavozimiga – 1 ta o'rin.

***Stomatologiya fakulteti***
Terapevtik stomatologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin;
Ortopedik stomatologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin.

***Diplomdan keyingi ta'lim fakulteti***
Nevrologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin
Stomatologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin;
Tibbiy radiologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o'rin;
Nevrologiya kafedrasi, stajyor-assistent lavozimiga – 1 ta o'rin.

***Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.***

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Katta o'qituvchi, assistent yoki stajyor-assistent lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

***Manzil:*** Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

*xotira*

## OSTONOV SHARIF RAUFOVICH



Beshafqat o'lim Samarqand davlat tibbiyot universiteti bosh muhandisi Sharif Ostonovni oramizdan olib ketdi.

Sh.Ostonov 1953-yil 3-aprel kuni Kattaqo'rg'on tumanida tavallud topgan.1979-yilda Toshkent politexnika institutining qishloq xo'jalik mashinalari muhandisi mutaxassisligini, 1991-yilda Toshkent Oliy partiya maktabining politolog mutaxassisligini tamomladi.

50 yildan ortiq mehnat faoliyati davomida Sh.Ostonov turli idora, korxona va tashkilotlarda ishladi. Dastlab oddiy usta, ishchi, duradgor, muhandis-texnolog kabi vazifalarda boshlagan bo'lsa, keyinroq xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi ijroiya qo'mitasi raisi, Kattaqo'rg'on tumani hokimining birinchi o'rinbosari, viloyat hokimligi kapital qurilish boshqarmasi boshlig'i, Payariq tumani hokimi, viloyat hokimligi nazorat bo'limi boshlig'i kabi mas'ul lavozimlarda mehnat qildi. 2020-yildan boshlab Samarqand davlat tibbiyot universiteti bosh muhandisi lavozimiga tayinlanib, umrining oxirigacha ushbu vazifada mehnat qilib kelayotgan edi. U o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni, vijdonan, halol bajardi. Buning natijasida bir necha bor yuqori turuvchi tashkilotlarning faxriy yorliq va tashakkurnomalari bilan taqdirlandi.

Universitetdagi mehnat faoliyati davomida yetuk muhandis va olim sifatida shakllandi. Ish faoliyatida yangilikka intiluvchan, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, o'zi va boshqalarga nisbatan talabchan muhandis, rahbar ekanligini namoyon eta oldi.

Sh.Ostonov universitet jamoasida hamkasblari, shogirdlari orasida hurmatga sazovor edi. To'g'riso'zligi, mehribonligi, g'amxo'rligi, madaniyatli va kamtarligi bilan ajralib turardi. Mohir tashkilotchi, o'z ishining ustasi, jonkuyar rahbar Sharif Ostonovning yorqin xotirasi qalbimizda abadiy saqlanadi.

***Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektorati va Kasaba uyushmasi qo'mitasi***

# OCHIQ MA'RUZA E'LONLARI

**SamDTU DKTF Pediatriya va Neonatologiya hamda 1-son Akusherlik va ginekologiya kafedralari** ishtirokida 2024-yil 5-noyabr kuni soat 10:00 da Akusherlik-ginekologiya, Pediatriya va Neonatologiya fanlaridan klinik ordinatorlar va magistratura rezidentlari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Kesar kesish va yangi tug'ilgan chaqaloqlar".
**Ma'ruzachilar:** T.f.d., professor D.R.Xudoyorova hamda t.f.d., professor K.R.Dilmuradova.
**Manzil:** 1-son Akusherlik ва ginekologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Dekanat xodimlari, klinik ordinatura va magistratura rezidentlari, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.d., professor D.R.Xudoyorova hamda t.f.d., dotsent R.X.Sharipov.

**SamDTU Tibbiy kimyo hamda Biologik kimyo kafedralari** ishtirokida 2024-yil 5-noyabr kuni soat 11:10 da Tibbiy kimyo hamda Biologik kimyo fanlaridan 2-son Davolash ishi fakultetining 211-215 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Uglevodlar tuzilishi, glyukoza katabolizmi va glyukogenez. Pentozofosfat yo'lining ahamiyati".
**Ma'ruzachilar:** PhD, assistent Ch.A.Rayimqulova hamda PhD, assistent X.B.Fayzullayeva.
**Manzil:** Biologik kimyo kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Kafedralar professor-o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.d, professor D.Q.Xolmurodova hamda t.f.d., professor Q.M.Xalikov.

**SamDTU Bolalar kasalliklari propedevtikasi hamda 2-son Pediatriya kafedralari** ishtirokida 2024-yil 5-noyabr kuni soat 11:10 da Bolalar kasalliklari propedevtikasi va Pediatriya fanlaridan Xalqaro ta'lim fakultetining 341-344 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Anatomical va phyziological feachers of Cardivascular system. Semiotics of the diseases" ("Bolalarda yurak-qon tomir tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Kasalliklarning semiotikasi va klinik kechishi").
**Ma'ruzachilar:** T.f.n., dotsent X.N.Shadiyeva hamda PhD. M.Dj. Murodov.
Ekspert: T.f.n., dotsent G.Ye.Tastanova.
**Manzil:** Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.d., dotsent D.T.Rabbimova hamda t.f.d., dotsent N.I.Axmedjanova.

**SamDTU Bolalar kasalliklari propedevtikasi hamda 1-Pediatriya va neonatologiya kafedralari** ishtirokida 2024-yil 5-noyabr kuni soat 13:10 da Bolalar kasalliklari propedevtikasi va Pediatriya fanlaridan 2-son Davolash ishi fakultetining 311-315 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Bolalarda siydik ajratish tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari, kasalliklar semiotikasi. Shish sindromi. Bolalarda glomerulonefritlar".
**Ma'ruzachilar:** T.f.n., dotsent Sh.M.Ibatova hamda t.f.n., dotsent B.I.Zakirova.
**Manzil:** Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.d., dotsent D.T.Rabbimova hamda t.f.d., professor N.M.Shavazi.

**SamDTU Psixiatriya, tibbiy psixologiya va narkologiya hamda Nevrologiya, hamda 1-son Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedralari** ishtirokida 2024-yil 6-noyabr kuni soat 09:35 da, Psixiatriya hamda Bolalar psixiatriyasi fanlaridan Pediatriya ishi fakultetining 524-526 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Экзогенные психические расстройства: психические изменения при ЧМТ, эндокринных заболеваниях и в гериатрии" ("Egzogen ruhiy buzilishlar: gerontopsixiatriya, BMJ, endokrin kasalliklardan keyin ruhiy buzilishlar").
**Ma'ruzachilar:** T.f.n., dotsent A.S.Velilyayeva, t.f.n., dotsent K.V.Shmirina hamda t.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova.
**Manzil:** Psixiatriya, tibbiy psixologiy va narkologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** O'quv bo'limi, dekanat xodimlari, kafedra o'qituvchilari, magistratura rezidentlari, klinik ordinatorlar va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.n., dotsent A.S.Velilyayeva, t.f.n., dotsent K.V.Shmirina hamda t.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova.

**SamDTU Tibbiy biologiya va genetika hamda Patologik anatomiya seksion-biopsiya kursi bilan kafedralari** ishtirokida 2024-yil 8-noyabr kuni soat 08:00 da Tibbiy biologiya. Umumiy genetika fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 111-115 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Odam genetikasi va tibbiy genetika. Irsiy kasalliklar. Tibbiy genetik maslahat."
**Ma'ruzachilar:** PhD, katta o'qituvchi G.U.Amonova hamda PhD. R.N.Abdumuminova.
**Manzil:** SamDTU Akademik litsey binosi, 3-qavat, ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Kafedra o'qituvchilari, o'quv bo'limi, dekanat xodimlari va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** PhD. R.N.Abdumuminova hamda t.f.d., dotsent F.M.Xamidova.

**SamDTU Neyroxirurgiya hamda Odam anatomiyasi kafedralari** ishtirokida 2024-yil 12-noyabr kuni soat 11:10 da Neyroxirurgiya va Odam anatomiyasi fanlaridan 1-son Davolash ishi fakultetining 501-505 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Kalla suyagi va bosh miya jarohatlari".
**Ma'ruzachilar:** PhD, dotsent M.A.Aliyev hamda t.f.n., dotsent E.U.Xusanov.
**Manzil:** SamDTU Ko'p tarmoqli klinikasi Neyroxirurgiya kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** PhD, dotsent M.A.Aliyev hamda t.f.n., dotsent G.Ye.Tastanova.

**SamDTU 1-Pediatriya va neonatologiya hamda Nurli diagnostika va terapiya kafedralari** ishtirokida 2024-yil 12-noyabr kuni soat 13:10 da Pediatriya va Nurli diagnostika fanlaridan Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakultetining 401-405 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Бронхиальная астма у детей. Лабораторно-инструментальная характеристика заболевания." ("Bolalarda bronxial astma kasalligini tashxislash. Pikfloumetriya o'tkazish, uning ko'rsatkichlarini interpretatsiyasi.")
**Ma'ruzachilar:** T.f.n, dotsent M.V.Lim hamda t.f.n., dotsent v.v.b. E.U.Yanova.
**Manzil:** Nurli diagnostika va terapiya kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.d., professor N.M.Shavazi hamda t.f.n., dotsent D.Sh.Mansurov.

**SamDTU Yuqumli kasalliklar hamda Nevrologiya kafedralari** ishtirokida 2024-yil 14-noyabr kuni soat 11:10 da Yuqumli kasalliklar fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 511-515 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Менингококковая инфекция." ("Meningokokkli infektsiya.")
**Ma'ruzachilar:** T.f.d., professor S.H.Vafokulov hamda t.f.n., assistent N.F.Vyazikova.
**Manzil:** Yuqumli kasalliklar kafedrasi kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar, shifokorlar
**Kafedra mudirlari:** T.f.d., dotsent N.A.Yarmuxamedova hamda t.f.d., professor A.T.Jurabekova.

**SamDTU Informatika, informatsion texnologiyalar hamda Fizika, biofizika va tibbiy fizika kafedralari** ishtirokida 2024-yil 15-noyabr kuni soat 11:10 da Tibbiyotda axborot texnologiyalar fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 111-115 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Tibbiy biologik signallarni statistik metodlar asosida qayta ishlash texnologiyasini talabalaga o'rgatishda Microsoft Excel elektron jadval muharririning keng imkoniyatlaridan foydalanish".
Ma'ruzachilar: I.f.n., katta o'qituvchi A.M.Voxidov hamda PhD, dotsent Sh.U.Uraqov.
**Manzil:** Informatika, informatsion texnologiyalar kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Kafedralar assistentlari, klinik ordinatorlar, magistrlar, TIJga a'zo talabalar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** I.f.n., dotsent S.A.Karabayev hamda PhD., dotsent Sh.U.Uraqov.

**SamDTU 3-son Ichki kasalliklar hamda Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedralari** ishtirokida 2024-yil 15-noyabr kuni soat 13:10 da Ichki kasalliklar va Ichki kasalliklar propedevtikasi fanlaridan 1-son Davolash ishi fakultetining 416-420 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "YuIK. Miokard infarkti etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, ExoKG funksional diagnostikasi, davolash tamoyillari."
Ma'ruzachilar: T.f.d., professor G.Z.Shodikulova hamda t.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova.
**Manzil:** 3-son Ichki kasalliklar kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Kafedralar assistentlari, bo'lim shifokorlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.d., professor G.Z.Shodikulova hamda t.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova.

**SamDTU Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti va xalq tabobati hamda DKTF Pediatriya va neonotologiya kafedralari** ishtirokida 2024-yil 16-noyabr kuni soat 11:10 da Bolalar kasalliklarida reabilitatsiya fanidan Pediatriya ishi fakultetining 401-405 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Pulmonologiyada reabilitatsiya usullari".
**Ma'ruzachilar:** T.f.d., professor Z.F.Mavlyanova hamda t.f.d., dotsent R.X.Sharipov.
**Manzil:** Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti va xalq tabobati kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Kafedra professor o'qituvchilari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.d., professor Z.F.Mavlyanova hamda t.f.d., dotsent R.X.Sharipov.

**SamDTU Ichki kasalliklar propedevtikasi hamda Patologik anatomiya seksion biopsiya kursi bilan kafedralari** ishtirokida 2024-yil 19-noyabr kuni soat 11:10 da Ichki kasalliklar propedevtikasi hamda Patologik anatomiya fanlaridan 1-son Davolash ishi fakultetining 301-305 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Revmatik isitma. Mitral va aortal klapan nuqsonlari. Mitral va aortal klapan stenozi va yetishmovchiligi semiotikasi va patologoanatomik aspektlari".
**Ma'ruzachilar:** Phd. D.R.Toirov hamda t.f.n., dotsent T.J.Eshkabilov.
**Manzil:** Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Kafedra o'qituvchilari, bo'lim shifokorlari, o'quv bo'limi, va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova hamda t.f.d., dotsent F.M.Xamidova.

**SamDTU Pediatriya ishi fakulteti Ichki kasalliklar hamda 3-son ichki kasalliklar kafedralari** 2024-yil 20-noyabr kuni soat 10:00 da Ichki kasalliklar fanidan Pediatriya ishi fakultetining 620-622 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Системная красная волчанка в педиатрии и терапии. Дифференцированный подход к диагностике и лечению СКВ, эффективность моноклональных антител." ("Pediatriya va terapiyada Tizimli qizil yugurik kasalligi. Tashxislash va davolashda differentsiallashgan yondashuv, monoklonal antitanalar samaradorligi".)
**Ma'ruzachilar:** PhD., dotsent Z.B.Babamuradova hamda PhD., dotsent U.S.Pulatov.
**Manzil:** Pediatriya ishi fakulteti Ichki kasalliklar kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Kafedralar assistentlari, o'quv-uslubiy boshqarma xodimlari, dekanat xodimlari, klinik ordinatorlar va magistratura rezidentlari.
**Kafedra mudirlari:** PhD., dotsent Z.B. Babamuradova hamda t.f.d., professor G.Z.Shodikulova.

**SamDTU 2-son Pediatriya hamda Patologik anatomiya seksion biopsiya kursi bilan kafedralari** 2024-yil 20-noyabr kuni soat 11:10 da Pediatriya fanidan Pediatriya ishi fakultetining 516-520 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Bolalarda o'tkir glomerulonefrit. Etiopatogenezi, klinik ko'rinishi, diagnostikasi, morfologik belgilari, asoratlari, differensial diagnostikasi. Davolash tamoyillari".
**Ma'ruzachilar:** T.f.d., dotsent N.I.Axmedjanova hamda t.f.d., dotsent F.M.Xamidova.
**Manzil:** 2-son Pediatriya kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.d., dotsent N.I.Axmedjanova hamda t.f.d., dotsent F.M.Xamidova.

**SamDTU Ftiziatriya va pulmonologiya hamda 2-Ichki kasalliklar va kardiologiya kafedralari** ishtirokida 2024-yil 25-noyabr kuni soat 11:10 da Ftiziatriya va Ichki kasalliklar fanlaridan Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va biologiya fakultetining 401-404 guruh talabalari, klinik ordinator va magistratura rezidentlari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Ikkilamchi tuberkulyoz. O'pkaning o'choqli, yallig'langan tuberkulyozi. Qiyosiy tashxisi".
**Ma'ruzachilar:** T.f.n., dotsent v.v.b. X.I.Turdibekov hamda PhD A.I.Muxiddinov.
**Manzil:** Ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.
**Taklif qilinganlar:** Magistratura rezidentlari, klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.d., professor E.N.Tashkenbayeva hamda PhD, dotsent A.A.Kim.

**SamDTU DKTF Terapiya, kardiologiya va funksional diagnostika kardioxirurgiya kursi** bilan va Endokrinologiya kafedralari 2024-yil 26-noyabr kuni soat 10.05 da terapiya va endokrinologiya fanlaridan shifokor-tinglovchilar, klinik ordinator va magistratura rezidentlari, kardiologlar, terapevtlar uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.
**Mavzu:** "Сахарный диабет и его осложнения" ("Qandli diabet va uning asoratlari").
**Ma'ruzachilar:** T.f.n., professor I.R.Agababyan hamda PhD., dotsent G.Sh.Negmatova.
**Manzil:** DKTF Terapiya, kardiologiya va funksional diagnostika kafedrasi ma'ruzalar zali. (Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi 2-korpus 2-qavat)
**Taklif qilinganlar:** Terapiya, endokrinologiya va UASH kafedralari tinglovchilari va shifokorlari, ushbu mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan klinik ordinatorlar va magistratura rezidentlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.
**Kafedra mudirlari:** T.f.n., professor I.R.Agababyan hamda PhD, dotsent G.Sh.Negmatova.


*Tahririyat raisi:*
**J.A. RIZAYEV**

*Bosh muharrir:*
**E.S. TANGIROV**

*Tahrir hay'ati:*
***G'.U.Lutfullayev, S.A.Karabayev, A.A.Axmedov, J.F.Kadirov, B.E.To'xtarov, F.A.Daminov, S.E.Mamaradjabov, N.M. Shavazi, O.A.Xamidov, D.Sh.Abduraxmanov***

SHIFOKOR SO`ZI
Nashr uchun mas'ul:
**O. Muratov**

*Operator va sahifalovchi:*
**A. Xolboyev**
*Fotomuxbir:*
**O.Axmedov**

*Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro`yxatga olingan.*
*INDEKS: 5539*

*Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va* ***bepul tarqatiladi***

***MANZIL:** Samarqand shahri, Amir Temur ko`chasi 18-uy.*
***Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75***
***e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz***

***Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.***
***Nashrga ruxsat berildi: 2024 yil, 30-oktabr Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 90***